



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



4. Qurbonova, M. "Ijodiy fikrlashni rivojlantirishda adabiyotning o'rni." Samarqand: Zarafshon nashriyoti, 2020.

5. Omonov, B. "Pedagogik texnologiyalar va adabiy ta'lim." Toshkent: Universitet nashriyoti, 2017.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/BNAH1277

KEYS TEXNOLOGIYASINING O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

Qosimova Munisa Botirjon qizi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

munisakosimowa77@gmail.com

ORCID:0000-0001-9991-4897

Annotatsiya: Adabiyot darslarida keys texnologiyasidan foydalanishda o'quvchilar turli vaziyatlar bilan tanishadilar, mushohada qiladilar, jamoa bilan ishlash, vaziyatlarni tahlil qilish, qarorlar qabul qilish, mustaqil fikrlash, o'z-o'zlarini tanqid qilish, ijodiy fikr yuritishni o'rganadilar. Mazkur maqolada 11-sinf darsligida keltirilgan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridan keys namunasi keltirilgan, jumboqli matn orqali vaziyatga qiziqtirilib, so'ng tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: case-study, vaziyat, g'oya, tahlil, tanqid, ma'lumot, matn, badiiy asar, yechim.

Аннотация: С помощью кейс-технологии студенты знакомятся с различной информацией, решают проблемы, учатся работать с обществом, анализировать литературу, принимать решения, мыслить самостоятельно, критиковать себя, мыслить творчески. В данной статье в учебнике для 11 класса рассматривается статья Юсуфа Хоса Хаджиба «Кутадгу Билиг» на примере кейса, текста-головоломки и анализируется ситуация.

Ключевые слова: кейс, ситуация, идея, анализ, критика, информация, текст, художественное произведение, решение.

Abstract: Using case technology, students get acquainted with various information, solve problems, learn to work with society, analyze literature, make decisions, think independently, criticize themselves, and think creatively. In this article, in the 11th grade textbook, the article from Yusuf Khos Hajib's "Kutadgu Bilig" is interested in and analyzed the situation through a case example, a puzzle text.

Keywords: case-study, situation, idea, analysis, criticism, information, text, artistic work, solution.

Bugungi globallashuv jarayoni jamiyatda plyuralizmga ehtiyoj borligini ta'kidlaydi hamda o'quvchilarning jahon miqyosida fikrlashini yoqlaydi. Mustaqil tafakkurni shakllantirishda o'quvchilarni mulohaza yuritishga yetaklaydigan topshiriqlar ta'lim tizimida muhim o'rin tutadi. Bu esa asar tahlilida shunchaki voqealar ketma-ketligini gapirmasdan, o'quvchilarni o'ylab, mushohada yuritishga undash kerakligini tasdiqlaydi.

Keys-stadi usuli (inglizcha case-study – vaziyat, holatni o'rganish, tahlil qilish usuli) – real vaziyatni turli tavsiflardan foydalangan holatda o'quvchilarda aniq ko'nikmalarni shakllantirish texnikasi. O'quvchilar vaziyatni tahlil qilishlari,



muammo mohiyatini tushunishlari, mumkin bo'lgan yechimlarni taklif qilishlari va ularning eng yaxshilarini tanlashlari kerak. Keyslar real vaziyatga aloqador va unga yaqin bo'lgan materiallarga asoslanadi. Aniq vaziyatlar usuli bo'lgan "case-study" o'yinli bo'lmagan faol o'qitish uslubiga kiradi. Bu uslubning diqqat markazida axborot olish turadi. Uslubning maqsadi esa o'quvchilarni mustaqil ma'lumot izlashga, ularni matn bilan ishlashga, ma'lumotlarni to'plashga, tizimlashtirishga va tahlil qilishga o'rgatishdir.

"Case-study" (Keys-stadi) texnologiyasi mavzuni mustaqil o'rganish, muammo mohiyatini aniqlash, o'z nuqtayi nazarini himoya qilish, mantiqiy xulosa chiqarish, ma'lumotlarni taqqoslash, umumlashtirish va tahlil qilish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Bunda o'quvchilar faoliyati muammolarni hal qilish yo'llarini izlashga, murakkab vaziyatlarga taalluqli barcha fikrlarga o'z qarashlarini erkin bayon etishga yo'naltiriladi [Kambarova S].

Bu texnologiya qo'llashda guruhli faoliyat yoki individual mashg'ulotdan ham foydalanish mumkin. Shu bilan bir qatorda, keys mohiyatidan kelib chiqib, uni o'quvchilarga og'zaki yoki yozma shaklda taqdim qilish ham samara beradi.

Biz keys-stadi usulining g'oyasini quyidagi ko'rinishda havola qilamiz:

- Usul bilim olishga mo'ljallangan bo'lib, qo'yilgan savolga yagona emas, bir necha javoblar mavjud bo'lishi mumkin, ahamiyatlisi, javoblarning haqiqatni qaror toptirishdagi raqobatbardoshligi.

- Ta'lim berishdagi urg'u tayyor bilimlarni olishga emas, balki yaratishga, talaba va o'qituvchining hamkorlikda ijod qilishiga qaratiladi. Shu jihatdan ham keys-stadining an'anaviy uslublardan tubdan farqi talaba va o'qituvchining muammoni muhokama qilishda teng huquqli ekanidir.

- Bu uslubdan foydalanishning natijasi nafaqat bilim olish, balki kasbiy faoliyatni rivojlantirish hamdir.

- Keys-stadi texnologiyasida esa real hayotda namoyon bo'ladigan, talaba olishi kerak bo'lgan bilim va amaliy malakalar majmuasida aks etadigan aniq vaziyat modeli ishlab chiqiladi (bu xoh o'quv jarayoniga xoh adabiyot fani namunasiga misol bo'la olsin). Bunda o'qituvchi savollarni tayyorlovchi, javoblarni belgilovchi, umuman olganda, jarayon boshqaruvchisi sifatida ko'rinadi.

- Bunda his-tuyg'u, ijodiy raqobat, hatto keys muhokamasidagi spektaklga o'xshab ketadigan kurash jarayoni orqali namoyon bo'ladi.

Keys-stadi namunalarini o'quvchilarga taqdim qilayotganimizda hushyor bo'lishimiz, o'rinli, tahlilga torta oladigan keys taqdim qilishimiz lozim. Keyslar bir necha jumladan bir necha sahifagacha hajmda bo'lishi mumkin.

Yaxshi keyslar quyidagi talablarga javob bera olishi zarur:

- ✓ Vazifaning maqsadga aniq mos kelishi.
- ✓ Mos qiyinchilik darajasiga ega bo'lishi.
- ✓ O'tilayotgan mavzu orqali yechim topish imkoniyatining mavjudligi.
- ✓ Tahliliy fikrlashni rivojlantirishi.
- ✓ Munozara uyg'otishi.



✓ Yechimga ega bo'lishi.

Keys-stadi texnologiyasini adabiyot fani bilan bog'laydigan bo'lsak, biz talabalarga ikki xil shaklda taqdim qilishimiz mumkin.

1. O'quv jarayoniga asoslanib, keysni maktab faoliyati bilan bog'lagan holatda.

2. Badiiy asar misolida.

Agar biz keys usulini qo'llamoqchi bo'lgan badiiy asarni maktab darsligida keltirilgan parcha asosida tashkillashtiradigan bo'lsak, adabiy matnni bir dars oldin o'quvchilarga taqdim qilishimiz joiz. Zero, keys-stadi namunasi o'quvchiga xoh yozma, xoh og'zaki shaklda taqdim etilsin, undagi holat jumboq sifatida beriladi va bu o'quvchining qiziqishi ortishiga sabab bo'ladi.

"Case-study" uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba" kitobida [A.Abduqodirov va boshqalar] pedagogik vaziyatlarni – keyslarni tahlil qilishga :r vazifalar va ularni hal etish namunalari keltirilgan:

Keys. Ota-onalar bolalari bilan muloqot paytida ko'pincha ularni boshqa bolalar bilan taqqoslaydilar.

Shirinning onasi, o'z qizining xulqidan xursand, ko'pincha u: "Sen borgan sari aqlli bo'lyapsan. Sen hammadan ham yaxshisan", "Sen eng chiroylisan", – deydi.

Dilnozaning onasi esa qiziga "Hamma bolalar ham bola, faqat sen mening tentagimsan", "Qaragin, Dilfuza qanday aqlli qiz. U hamma ishni eplaydi, senda esa, hech nima chiqmaydi", kabi jummalarni ishlatadi.

Muammo:

1. Ikkala ona ham o'z bolalariga yaxshilik istaydilar, lekin ularning qaysi biri tarbiyada yaxshiroq natijaga ega bo'ladi?

2. Bolalarning xulqini "lohiyalash" yo'nalishi onalarning shaxsiy xususiyatlariga bog'liqmi?

Yechish. Ikkala ona ham o'zlarining qizlarini boshqa bolalar bilan taqqoslaydilar, lekin birinchi ona ijobiy taqqoslashlardan, ikkinchi ona esa salbiy taqqoslashlardan foydalanadi. Shu bilan birga Shirin va Dilnozaning xulqlarini "loyihalash" turlichadir. [A.Abduqodirov va boshqalar].

Agar ona o'ziga ishongan bo'lsa, u holda, odatda, u o'zining bolasini maqtaydi va uni boshqa bolalardan ijobiy tarzda ajratadi. Bu bolaning ijtimoiy mavqeyi o'sishiga va o'zining tengqurlari bilan o'zaro munosabatidagi tizimda yaxshi o'rin egallashiga imkon beradi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, keyslarni kelgusi darsga qiziqtirish uchun o'quvchilarga taqdim qilishimiz mumkin. Bunga namuna sifatida 11-sinf darsligidagi Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarini keltiramiz. O'quvchilarni 6 tadan ko'p bo'lmagan kichik guruhlarda bo'lamiz. Har qaysi guruhga keyingi darsga tayyorgarlik ko'rib kelishlari uchun alohida keyslar tarqatamiz.

Keys. Oyto'ldi o'zi davlat ekanligini aytadi

Elig bir kuni o'zi yolg'iz o'ltirib,

Oyto'ldini chorladi, u juda xursand edi.



Oyto'ldi kirib qarshisida tik turdi,
 Elig imladi: Kelgin, o'tirgin, – dedi.
 Oyto'ldi (yonidan) to'p chiqardi, (ostiga) qo'ydi, ko'rgin,
 Uni bosib ro'paraga o'ltirdi, ko'rgin.
 Elig turli-tuman bilimlar sohasidan savol qildi,
 Oyto'ldi so'zga til ochdi, javob berdi.
 Elig sevindi, ko'rgin, uning chehrasi ochildi,
 Uni ko'rgan Oyto'ldi ko'zlarini yumib oldi.
 Elig so'zdan to'xtadi, hech indamadi,
 Oyto'ldi ham ko'zini yumdi, hech ochmadi.
 Elig o'z so'zini davom qildirib yana so'ray boshladi,
 Oyto'ldi javob berdi, u yuzini tumurib oldi.
 Elig iltifot bilan boqdi, o'zini mamnun qildi,
 Oyto'ldi tezlikda yuzini o'girdi.
 Eligning juda qahri keldi, yuzidan g'azab yog'di,
 Dedi: Ey, shoshqaloqlik kishi uchun yaramasdir.

Kuntug'dining so'zi

Hali sendan xizmat ko'rmasdan iltifot qildim,
 Senga (iltifot bilan) joy bersam, meni oyoq osti qilding.
 Sen to'p qo'yib darhol o'ltirishga hozirlanding,
 Bu sen uchun o'ltiradigan joymi, menga (shuni) aytib ber?
 Muammo. 1. Oyto'ldining eligga munosabatini izohlang.
 2. Elig Oyto'ldining bu qilmishiga qanday jazo berdi?
 3. Nima uchun bu qahramonga Oyto'ldi ismi berilgan?

Yechim. 1. Oyto'ldi shunday javob beradi: Mening senga namoyish qilganlarim bu mening odatlarim edi. Menga joy berding, men o'tirmadim, chunki menga o'rin yo'q, buni tushun dedim. Yerga to'p qo'yishimning ham siri bor ediki, men qandayligimni senga ko'rsatmoqchi edim. Koptok o'rinsiz dumalab yurgani kabi men ham o'rinsiz kezaman... Oyto'ldi shu tarzda o'z sifatlarini harakatlari bilan bayon qilganligini, unga ishonib bo'lmasligini ta'kidlaydi.

2. Elig Oyto'ldining izohlarini eshitgach, unga jazo tayinlamaydi.
 3. Oyto'ldi aytdi: Mening otimni,
 Dono (kishi) qiliqlarimni oyga nisbat berib atagan.
 Bu ay tug'sa, ashnu edi az tug'ar,
 Kuninga beduyur, yuqaru ag'ar.
 To'lun bo'lsa, to'lsa, ajunda yarur,
 Ajun xalqi andin yaruqluq bulur.
 Tugal bo'lsa, ko'r, ay bu ag'sa adiz,
 Yana erlu to'rchir, ketar ko'rk mengiz.
 Yaruqluqi aksur, yana yo'q bo'lur,
 Tug'ar kecha azin yana-o'q to'lur.
 Mening bu o'zum ma bu yanglig'turur,



Ara bar bo'lur-men, ara yo'q bo'lur...

Shu tartibda keyingi guruhlariga ham asardan shunday keyslar tarqatiladi, bu kelasi darsning qiziqarli hamda samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Boshqa bir asar misolida tahlilga tortadigan bo'lsak, 11-sinf adabiyot darsligida Alisher Navoiy mavzusida Xondamirning "Makorim ul-axloq" asaridan parchalar berilgan. "Makorim ul-axloq"da berilgan hikoyatlarni "case study" usulida qanday o'rganamiz?

Hikoyat

Bir kuni hidoyat nasabli Amir asr namozini o'qigandan so'ng, har kunlik odatiga xilof ravishda, jamoat namoziga kelmagan kishilarni surishtirishga kirishmasdan, shosh-pisha o'zlarining shaxsiy bog'chalari tomon yo'l oldilar va unchalik vaqt o'tmasdan, tezda qaytib keldilar. Bundan ul hazratning xizmatida bo'lgan mulozimlardan ayrimlar hayron bo'ldilar. Ul hazrat bu holatni tushunib, o'zidan gavhar sochuvchi tillari bilan quyidagi so'zlarni aytdilar:

Alisher Navoiy shu qadar muhim bilgan vazifa nima edi? Fikrlaringizni bayon qiling.

O'quvchilar Alisher Navoiy shaxsiyatidan kelib chiqqan holatda qanday yondashgan bo'lishi mumkinligi haqida fikr yuritishadi. Bu o'quvchilarni fikrlashga, o'z mulohazalarini asoslashga undaydi. Keys usuli talabalarga murakkab muammoni tezda anglash, oqilona yechim topish va bu to'xtamni boshqalarga qisqa, samarali tarzda yetkazish qobiliyatini beradi. Buni amalga oshirish jarayonida keys usuli bir qancha boshqa ishlarni ham amalga oshiradi, ularning har biri o'ziga xos qimmatlidir. Talabalarning qiziqishini uyg'otgan holda, keys usuli kasbiy masalalarga ishtiyoqni kuchaytiradi. O'quvchilardan turli xil javoblarni eshitgach, aynan asarda berilgan yechimni ularga havola qilish mumkin bo'ladi.

Keys yechimi: (aynan asardan)

- *Masjidga kelayotgan chog'imda falon joyda to'xtab, tahorat qilgan edim.*

(Namoz chog'ida) jamoat safida turganimda yelkamga yopishib olgan bir chumolini ko'rdim. Bildimki, tahorat qilgan joyimda menga ilashib olgan ekan. Agar yelkamdan tushib ketib, unga biror ozor yetsa va uyiga boradigan yo'lni topolmay qolsa, uvoliga qolamanmi, deb qo'rqdim. Shuning uchun ham namoz tugaganidan so'ng shosh-pisha o'sha tahorat qilgan joyimga bordim-da, uni o'z uyasi oldiga qo'yib yubordim va ko'nglimni (O'zim bilmagan xolda Xudoning bir jonivoriga) jabr-zulm qilib qo'yish xavotiridan xalos bo'ldim.

Ul hazratning xizmatkorlari bu hikoyatni eshitib, uning benihoya rahmdilligidan hayrat dengiziga g'arq bo'lishdi hamda tillariga (ul hazratning haqlariga) duo-yu hamd-u sanolar keltirishdi.

Ba'zi o'qituvchilar o'quvchilarga yechim berishdan qochishni, o'zlari izlanishlarini tavsiya beradilar. Bu orqali fikrlar rasi ma'lum darajada chegardan holi bo'ladi. Bu hikoyat darslikda (o'quvchilar qo'lida) borligi sababli aynan "Makorim ul-axloq" asariga yuzlanib, Alisher Navoiyning boshqa bir sifatlarini ochib berishda qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.



Case-study o'quv mashg'ulotlarida ko'rib chiqiladigan, dalill-u materiallar asosida yaratiladigan o'quv vaziyatidir. Bunda o'quvchilar turli vaziyatlar bilan tanishadilar, mushohada qiladilar, jamoa bilan ishlashni, vaziyatlarni tahlil qilishni, qarorlar qabul qilishni, mustaqil fikrlashni, o'z-o'zlarini tanqid qilishni, ijodiy fikr yuritishni o'rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Abduqodirov va boshqalar. "Case-study" uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2012. – 55-bet.
2. Kambarova S. Mustaqil mutolaa va adabiy tahlil. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 16-bet.
3. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik. To'xliyev B. va b. 1-nashr. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.
4. Case study as literature. Mikaela Öberg EKP 14 Halmstad University ETN, Halmstad Sweden mikani14@student.hh.se.

DRAMATIK YARATIQLARNI O'QITISH QANCHALIK MUHIM?

Raxmatova Karima Erkinovna
ToshDO'TAUning 1-kurs magistranti
raxmatovakarima@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola adabiy ta'limda o'qitilayotgan dramatik asarlarning o'quvchilarga estetik zavq uyg'otish bilan birga, ma'naviy boylik va ijtimoiy masalalarni o'rganishi uchun erta yoshdan o'quvchilarga tanishtirish kerakligi haqida. Bundan tashqari, adabiy turning o'qitishga :r muammolar va yechimlarga tavsiyalar yoritildi. Xalqaro tajribada, jumladan rus va turk dasturlariga e'tibor qaratilib, tahlilga tortildi va takliflar berildi.

Kalit so'zlar: dramatik yaratiq, ma'naviyatni shakllantirish, o'quv dasturi, darslik, jahon tajribasi.

Аннотация. В данной статье подробно обсуждается необходимость знакомить учащихся с драматическими произведениями, изучаемыми в рамках литературного образования, с раннего возраста, чтобы они могли узнать о духовном богатстве и социальных проблемах, а также привить учащимся эстетическое удовольствие. Кроме того, были освещены проблемы и рекомендации по их решению, связанные с преподаванием литературного жанра. Было уделено внимание международному опыту, в том числе российским и турецким программам, и высказаны предложения.

Ключевые слова: драматическое творчество, духовное формирование, учебная программа, учебник, мировой опыт.

Abstract. This article discusses in detail the need to introduce students to dramatic works taught in literary education from an early age so that they can not only enjoy them aesthetically, but also learn about spiritual wealth and social issues. In addition, it highlights the problems and recommendations for solutions related to the teaching of the literary genre. International experience, including Russian and Turkish programs, is analyzed and suggestions are made.

Keywords: dramatic creation, spiritual formation, curriculum, textbook, world experience.



<i>Botirova Nigora Nurulla qizi. DARSLIKLARDA BERILGAN HIKOYA NAMUNALARINI O'QITISH METODIKASI</i>	881
<i>Ibroximova Surayyoxon Shodibek qizi. ZAMONAVIY ADABIYOT DARSLARIDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH</i>	887
<i>Ismoilova Maxliyo Atxamali qizi. ADABIYOT O'QITISHDA EPISTOLYAR NAMUNALARDAN FOYDALANISH (MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK IJODI MISOLIDA)</i>	893
<i>Meliboyeva Dilafruz Abdurahim qizi. 6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI O'QISH MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH YUZASIDAN MULOHAZALAR</i>	898
<i>Meyliyeva Nasiba Tolmas qizi. 5–7-SINFLAR ADABIYOT DARSLARIDA SHE'RIY ASARLARNING BADIY TIL XUSUSIYATLARINI O'RGATISH METODIKASI: MIRTEMIR VA ANVAR OBIDJON SHE'RLARI MISOLIDA</i>	903
<i>Nomozova Dilobar Suyun qizi. FAXRIYOR SHE'RIYATINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR</i>	908
<i>Qodirova Dilnoza Alisher qizi. ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING REFLEKSIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA</i>	916
<i>Qosimova Munisa Botirjon qizi. KEYS TEXNOLOGIYASINING O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI</i>	920
<i>Raxmatova Karima Erkinovna. DRAMATIK YARATIQLARNI O'QITISH QANCHALIK MUHIM?</i>	925
<i>Saydullayeva Shoiraxat Kaxramon qizi. TARIXIY ROMANLARNI O'QITISHDA KONSPIROLOGIYA NAZARIYASIDAN FOYDALANISH</i>	930
<i>To'g'onova Dinoraxon Mansurjon qizi. ADABIYOT DARSLARIDA INTERAKTIV O'QITISH MODELINING AMALIY TARAQQIYOTI VA AMALIYOTI</i>	935
<i>Toshpulatova Marjona Jamoliddinovna. UMUMTA'LIM BOSQICHLARIDA "XAMSA" DOSTONINI O'QITISH</i>	942
<i>Xolova Sabina Jo'raqulovna. LIRIK ASARLARNI O'QITISHGA XOS YONDASHUVLAR (O'ZBEKISTON VA TURKIYA TA'LIM TIZIMI MISOLIDA)</i>	950
<i>Xudoynazarova Sug'diyona Tillamurodovna. ADABIYOT DARSLARIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI</i>	953
<i>Xujanova Nilufar Do'smat qizi. GLOBALASHUV SHAROITIDA RAQAMLI SAVODXONLIKNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI</i>	958
<i>Xo'jayeva Mohinur Tulqinovna. ADABIYOT DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH IMKONIYATLARI</i>	964
<i>Norqulov Nurzod Saidmurodovich. MUMTOZ NASRIY ASAR TAHLILI YUZASIDAN ZAMONAVIY QARASHLAR</i>	968
<i>Abdullayeva Dildora Shokir qizi. ALISHER NAVOIY RUBOIY VA QIT'ALARINING BADIY KUCHI VA ULARNI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI</i>	972

